

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FRANKOFON DAVLATLAR BILAN ALOQALARI TARIXI VA DAVLAT SIYOSATI

BOBOYEV Doniyor Xaydaraliyevich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix” kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: boboyevdoniyor24@gmail.com

Tel.: +998970509198

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi va Frankofoniya mamlakatlari o'rtasidagi madaniy munosabatlarning tarixiy evolyutsiyasi va davlat siyosati yoritilgan. Unda ikki tomonlama madaniy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy bosqichlari ko'rib chiqilib, o'zaro g'oyalar, an'analar va qadriyatlar almashinuvini yoritilgan. Tadqiqot O'zbekistonning fransuzabon davlatlar bilan madaniy diplomatiyani mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarini o'rganadi, asosiy e'tibor ta'lim, san'at, merosni saqlash va til sohasidagi hamkorlik kabi sohalarga qaratiladi. Bundan tashqari, maqolada xalqaro tashkilotlar va madaniy shartnomalarning ushbu aloqalarni rivojlantirishdagi o'rnini yoritilgan. Ushbu munosabatlarning O'zbekistonning global madaniy mavjudligiga ta'sirini tahlil qilib, maqolada madaniy diplomatiya xalqaro hamkorlik va o'zaro tushunish vositasi sifatidagi muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Frankofoniya davlatlari, madaniy diplomatiya, xalqaro aloqalar, ta'lim, san'at, merosni asrab-avaylash, til sohasidagi hamkorlik, ikki tomonlama hamkorlik, madaniy almashinuv, davlat siyosati.*

ABSTRACT

This study examines the historical evolution and state policy of cultural relations between the Republic of Uzbekistan and the countries of the Francophonie. It examines the main stages of the development of bilateral cultural cooperation, highlighting the exchange of ideas, traditions and values. The study examines Uzbekistan's strategic initiatives to strengthen cultural diplomacy with French-speaking countries, focusing on such areas as education, art, heritage preservation and language cooperation. In addition, the article examines the role of international organizations and cultural treaties in the development of these relations. Analyzing the impact of these relations on the global cultural presence of Uzbekistan, the article emphasizes the importance of cultural diplomacy as a tool for international cooperation and mutual understanding.

Keywords: *Uzbekistan, Francophonie countries, cultural diplomacy, international relations, education, art, heritage preservation, language cooperation, bilateral cooperation, cultural exchange, state policy.*

KIRISH

Insoniyat o'zining ilk tarixidan boshlab turli xil ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zaro ijtimoiy,iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatib kelgan.Tarix saboqlari bizga shuni isbotlaydiki,xech bir davlat,boshqa qo'shni davlatlar bilan o'zoro xamkorlik qilmasdan turib taraqqiy etmagan.Xususan, O'zbekiston davlatchiligining shakllanishida xam xalqaro munosabatlar muhim ahamiyat kasb etgan.Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishda davlatchilik an'analariidan biri sanalgan xamkorlik masalasiga alohida urg'u berib kelmoqda.O'zbekistonning birinchi prezidenti ta'kidlaganidek,"o'tmishsiz kelajak,xamkorliksiz taraqqiyot bo'lmaydi."¹Shu nuqtayi nazardan "istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab o'ta muhim tashqi siyosiy masalalarini hal qilishga,davlatlararo siyosiy va iqtisodiy munosabatlar sohasida eng maqbul yo'llarini topishga to'g'ri keldi.Mamlakatning qulay geosiyosiy o'rni,uning birinchi navbatda o'z milliy manfaatlarini inobatga olgan xolda olib borayotgan,har tomonlama,chuqur o'ylangan,mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatning jahon xamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi,xalqaro maydonda obro'-e'tiborini ortib borishini ta'minlaydi"²Shu o'rinda ta'kidlash lozimki,O'zbekistonning Yevropa Frankofon³davlatlari(YFD) bilan olib borayotgan madaniy aloqalarini Fransiya,Shveytsariya va Belgiya davlatlari bilan aloqalar misolida aniq faktlar asosida o'rganish Respublika madaniy aloqalarida xalqaro tashkilotlar bilan teng xuquqlilik asosida amaliy xamkorlikning o'rnatilishi,rivojlanishi va jahon integratsion jarayonlarida ishtirokini tadqiq etish bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi.Zero,to'plangan tarixiy tajribani Yevropaning frankofon davlatlari bilan o'zaro amaliy munosabatlariga tatbiqan yalpi tadqiq etish nafaqat o'zining ijobiy sifatlarini ko'rsatgan shakl va vositalarini tartibga solish imkoniyatini beradi,balki ayni paytda muammoli jihatlarini xam oydinlashtirib,suveren O'zbekistonning tashqi siyosiy va madaniy faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha zaruriy ilmiy tavsiyalar berish imkoniyatini ham yaratadi.

¹I.Karimov I.A.Bunyodkorlik yo'lidan.4 tom.-T.:O'zbekiston,1996.-B 331

²I.Karimov I.A.O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li.-T.:O'zbekiston,2007.B.23

³ Frankofoniya atamasi fransuz geografi O Reklyu (1837-1916)tomonidan 1880 yilda birinchi marta qo'llangan bo'lib,avalliga fransuz tilida gaplashuvchi xalqlarning umumiyiligini bildirgan.Fransuz tili xalqaro tashkilotlar BMT,YUNESKO,Yevropa Ittifoqi va boshqa muassasalarning ishchi tili sifatida foydalanib kelishi va dunyoning besh qit'asida qo'llanishi xalqaro miqyosda uning ahamiyatini o'tirishga olib kelmoqda

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umuman olganda, jahon integratsion jarayonining bir bo'lagi sifatida Xalqaro frankafon tashkiloti (XFT) XX asrning 60-yillarida tashkil topgan. Aniqrog'i 1969-yil Niger davlatining Miameya shaxrida bo'lib o'tgan frankafon davlatlarning birinchi yig'ilishida xalqaro tashkilotning tuzilganligi rasman e'lon qilindi. Xozirgi kunda bu tashkilot 60 dan ortiq davlat (doimiy a'zolari) va 5 ta kuzatuvchi davlatlarini o'zida birlashtirgan. Bugungi kunda XFT tashkilotiga a'zo davlatning aholisi dunyo aholisining 10%, ishlab chiqarishning 11%, xalqaro savdoning 15% ini tashkil etadi⁴

O'zbekiston Respublikasi Frankofoniya davlatlari, xususan, Fransiya bilan o'zining xalqaro ishtirokini kuchaytirish va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida strategik jihatdan madaniy aloqalarni rivojlantirdi. Bu diplomatik aloqa Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI o'rtasidagi yozishmalar kabi tarixiy aloqalarga asoslanadi va 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sezilarli darajada rivojlandi.

G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqlarning rivojlanishi IX-XII asrlarga alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur jarayon jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlarning ilmiy faoliyatiga bog'liq bo'ldi. G'arb va Sharqda yaratilgan asarlarning arab tiliga tarjima qilinishi mintaqalardagi ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida erishilgan yutuqlarning o'zaro almashinuviga imkon yaratdi.

Ushbu aloqalar Amir Temur davlati barpo etilishi bilan yangi ko'rinishga va davlat darajasidagi munosabatlar sifatida o'rnatila boshlandi. Ma'lumki, Amir Temur va Fransiya qiroli Sharl VI Valua, ingliz qiroli Genrix IV Lankaster, Kastilya va Leon qiroli Genrix III va boshqa davlatlar bilan rasmiy yozishmalar olib borildi. Bu xaqida tadqiqotlar tomonidan bir qancha qimmatli ma'lumotlar⁵ berilgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'rta Osiyo xalqlari bilan Yevropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlar haqiqiy diplomatik aloqalar darajasiga ko'tarildi.

Ikki tomonlama aloqalar temuriylar davrida ham davom ettirilishiga qaramasdan, ular o'rtasidagi taxt uchun kurashlar, o'zaro nizolar oqibatida tez fursatda barham topdi. Xonliklar davrida esa Yevropa davlatlari bilan aloqalar butunlay to'xtab qoldi. Buning asosiy sababi o'zaro urushlar, siyosiy tarqoqlik va tashqi aloqalarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralanib qolganligidadir. Bu sabablar O'rta Osiyo xalqlarining jahon sivilizatsiyasidan ajralib qolishiga va buning natijasida o'lkada sodir bo'lgan madaniy turg'unlik va qoloqlikka olib keldi.

⁴ Herve Barraquand Presentatsion de l'organisations international de la francophoneie. Hermes 40, 2004, p. 22-23

⁵ Xolbekov M. "Yevropaga maktublar" // Xalq so'zi. 1992 yil 19 avgust; Axmedov B. Amir Temur. - T.: A. Qodirov nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1995

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin esa jahon maydonidagi madaniy munosabatlari integratsion jarayonga kirib borishda, uning madaniy aloqlarni rivojlantirish borasidagi siyosatni ishlab chiqishi va amalga oshirishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada respublikada amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va hayotning barcha sohalari kabi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish, zamon talabiga mos ravishda yuksakroq darajaga ko'tarishni taqozo qildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar madaniy siyosatni ishlab chiqishda, xukumat, xalqning tarixiy tajribalari va boy madaniyatdan foydalanish samarasini inobatga olmoqda.

Mamlakatning xalqaro, shuningdek, YFD bilan madaniy aloqlarning o'rnatilishida YUNESKO ning "Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya"⁶ xuquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Uning maqsadi bilimlarning yoyilishi, turli madaniyatlarni boyitish va qobiliyat iqtidorini rivojlantirishga yordam berish, barqarorlikni rivojlantirish va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni ta'minlash, har bir xalqning hayot tarzini yaxshiroq anglashga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi va Fransiya, Shveysariya, Belgiya o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishida ushbu davlatlarda joylashgan xalqaro tashkilotlar: Fransiyada-YUNESKO, Xalqaro ko'rgazma byurosi, Yevroparlament, Belgiyada-NATO, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Xalqaro bojxona tashkiloti va boshqalar ham davlatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga O'zbekistonning Fransiya, Shveysariya, Belgiya o'rtasida madaniy aloqalarning rivojlanishida xalqaro tanlovlar va festivallar ham tomonlar o'rtasidagi aloqlarning mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Belgiyada Qirolicha Yelezaveta sharafiga har yili o'tkaziladigan musiqa tanlovi, Malmedi va Shoteni (har yili) xalqaro folklor festivali "Sfinks" xalqaro musiqa festivali, Turn xalqaro raqs festivali, Lej "Ayollar ovozi" (ikki yilda bir marta) festivali, Parij etnografik va sotsiologik filmlar xalqaro festivali shular jumlasidandir. Bu tadbirlarda mamlakatning madaniyat va san'at arboblari ham o'z san'atlari bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqdalar.

O'zbekiston va Frankofoniya mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro madaniy almashinuv sezilarli darajada o'sdi. Xususan, Fransiyaning Toshkentdagi elchixonasi tomonidan 2015-yildan buyon badiiy ko'rgazmalar, konsertlar, filmlar namoyishidan tortib, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan akademik anjumanlargacha bo'lgan 200 dan ortiq madaniy tadbirlar o'tkazildi. Ta'kidlash joiz, Luvr muzeyida O'zbekistonning madaniy merosiga bag'ishlangan ko'rgazmasi

⁶ "Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya"si 1996 yil 4 noyabr Parijda bo'lib o'tgan Bosh konferensiyasining 14-sessiyasida qabul qilingan.

kengayayotgan madaniy hamkorlikning yuksak namunasi bo'lib, unga 100 000 dan ortiq tashrif buyuruvchilarining tashrifi kutilmoqda.

XULOSA

Xukumat tomonidan amalga oshiralayotgan jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lgan tinchliksevar tashqi siyosati uning mustaqil davlat sifatida tez tan olinishini ta'minladi va hu sababdan mustaqil O'zbekiston jahon integratsiyalashuvi jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri qo'shilib keta boshladi.

Respublika hukumati ichki madaniy siyosat olib boorish bilan birga, boy va qadimiy milliy madaniy meros hamda boyliklarni xalqaro miqyosga tanitish, milliy madaniyat targ'ibot- tashviqot ishlarini olib boorish, jahon maydonida xalqning o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida xalqaro maydondagi madaniy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov.I.A.Bunyodkorlik yo'lidan.4 tom.-T.:O'zbekiston,1996.-B.331
2. Karimov I.A.O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li.-T.:O'zbekiston,2007.-B.23
3. Matxoliqov Q.A.O'zbekiston Respublikasi va Yevropaning Frankofon davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar tarixi(Fransiya,Shveysariya va Belgiya misolida (1991-2005yy)).Diss.T.:2009 B-137
4. Xolbekov M."Yevropaga maktublar"//Xalq so'zi.1992 yil 19 avgust;Axmedov B.Amir Temur.-T.:A.Qodirov nomidagi xalq me'rosi nashriyoti,1995
5. Herve Barraquand Presentatsion de l'organisation internationale de la francophonieie.Hermes 40,2004.p.22-23
6. Sayfullaev, B. D. (2023). UZBEKISTAN-INDIA: TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF LITERARY RELATIONS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(09), 11-15.
7. Сайфуллаев, Д., & Сайфуллаев, Б. (2020). О научном исследовании двусторонних отношений Узбекистана и Индии. *Восточный факел*, 3(3), 139-144.
8. Sayfullaev, B. (2021, November). From the history of cultural relations between Uzbekistan and India. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 57-60).
9. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Wayback_Machine
10. <http://unesdoc.unesco.org/ulis/>